

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda 2024 yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT¹**

**I. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to‘g‘risida umumiy axborot**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi «Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-240-sonli qaroriga muvofiq **korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish** ishlari tashkil etish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda inson omilini qisqartirish va tegishli funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2024 yilda temir yo‘l tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentlik bilan birgalikda

«E-Anticor.uz» elektron platformasi orqali amalga oshirildi. Buning natijasida:

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;
- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi;
- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan tuzilma va lavozimlar ro‘yxati ishlab chiqildi.

2024 yil davomida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish uchun hokimiyat organi vakillari, IIB va Transport prokuraturasi mas‘ul xodimlari, sohaga doir fan doktorlari, mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari, seminar treninglar, videokonferensiyalar, jumladan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida 40 ta yig‘ilish tadbirlari amalga oshirildi, jumladan:

- markaziy apparat bo‘yicha - 3 ta;
- hududiy bo‘linmalar bo‘yicha - 15 ta;
- tarkibiy bo‘linmalar bo‘yicha - 22 ta.

II. Siyosat va tartib taomillar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisining 2022 yil 30 dekabrda 1228-N-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Siyosati** tasdiqlangan.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisining 2022 yil 4 iyuldagi 647-N-sonli buyrug‘i asosida jamiyatning quyidagi korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha **asosiy ichki idoraviy xujjatlari** qabul qilingan:

1. Korrupsiyaviy **xavf-xatarlarni aniqlash va baholash** uslubiyoti USLUBIYOTI;
2. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarda **manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish** bo‘yicha NIZOM;
3. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan **xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish** REGLAMENTI;

¹ “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati asosiy faoliyat korxonalarini

4. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi **kurashish sohasida o'qitilishini** tashkil qilish bo'yicha YO'RIQNOMA;
5. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida **kontragentlarni tekshirishga** oid YO'RIQNOMA;
6. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan **nomzodlarni tekshirish** bo'yicha YO'RIQNOMA;
7. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi tartib- taomillarning samaradorligini **monitoring va nazorat qilish** USLUBIYATI;
8. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi **hisobotni shakllantirish va taqdim etish** bo'yicha NIZOM;
9. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan **xizmat tekshiruvlari o'tkazish** bo'yicha REGLAMENT qabul qilindi.

Shuningdek, jamiyatning 2022 yil 25 oktabrdagi "Jamiyatning odob-axloq qoidalariga rioya etilishiga doir ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 1015- N-sonli buyrug'i asosida quyidagi hujjatlar qabul qilingan:

- "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xodimlarining **odob-axloq** Kodeksi;
- Jamiyatning **odob-axloq komissiyasi** to'g'risidagi nizom;
- Jamiyatning **odob-axloq komissiyasi tarkibi**.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 240-sonli Qarori ijrosi yuzasidan «O'zbekiston temir yo'llari» AJ va uning barcha tarkibiy tuzilmalari bo'yicha asosiy vazifa va funksiyalarining korrupsiyaga moyillik darajasi baholandi. Baholash natijasida Jamiyatning boshqarma, korxonalar va tashkilotlarining jami markaziy boshqaruv apparati, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida 128 funksiyalari soni quyidagi ko'rinishga ega:

- Markaziy boshqaruv apparati – 12 ta;
- Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari – 12 ta;
- Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari – 13 ta;
- Qashqadaryo viloyati – 7 ta;
- Surxondaryo viloyati – 12 ta;
- Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari – 8 ta;
- Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 16 ta;
- Boshqa tizim tashkilotlari – 48 ta.

Mazkur funksiya va vazifalaridan «O'zbekiston temir yo'llari» AJning birlashgan korrupsiyaviy xavf-hatarlar xaritasi shakllantirildi. Unga muvofiq **26 ta** funksiyaning korrupsiyaga moyillik darajasi "**yuqori**", **41 ta** "**o'rta**" va qolgan **61 ta** funksiyaning moyillik darajasi "**past**" etib belgilandi.

Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha belgilangan tartibda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan hamda hududiy va tarkibiy bo'linmalardan belgilangan chora-tadbirlarning bajarilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar olingan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya jamiyatning 2022 yil 4 iyuldagi 647-N-sonli buyrug‘i asosida tashkilot rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, xodimlar bo‘limi boshlig‘i, bosh hisobchilar va xaridni amalga oshiruvchi shartnomalar bilan ishlovchi mas‘ul xodimlar tomonidan to‘ldirildi va har bir tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tuzilmasi o‘z mas‘ul shaxslari tomonidan tahlillar o‘tkazildi.

Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan namunaviy dastur asosida jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi.

Mazkur qonun kuchga kirganiga qadar belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog‘liq masalalar, shu jumladan, davlat tashkilotlari xodimlari uchun o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etilishining ahvolini o‘rganish bo‘yicha savolnoma hamda taqdim etiladigan ma‘lumotlar bo‘yicha namunaviy jadvallar ma‘lumotlari to‘ldirilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga taqdim etildi. Bundan tashqari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati hamda tizim tashkilotlari mansabdor shaxslari va xodimlarining 46 nafari tadbirkorlik faoliyatini yuritib kelayotganligi aniqlangan. Mazkur xodimlar O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2022 yil 8 avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining tegishli bndlari hamda Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 6 martdagi 103-son Qarorida “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish ta‘qiqlangan mansabdor shaxslarning ro‘yxati to‘g‘risida”gi qaroriga asosan mazkur mansabdor shaxs va xodimlar tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatishi, kelgusida ham shu kabi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishlari lozimliklari borasida ogohlantirilib tadbirkorlik faoliyatlari tugatildi.

“Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida”gi 65-son buyrug‘i bilan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati rasmiy veb saytida joylashtirildi.

2024 yil 29 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Transport Prokurori yordamchisi-Adliya kichik maslahatchisi A.Majidov, Davlat xavfsizlik xizmati xodimi U.Nurmetov, Transportda xavfsizlikni ta‘minlash departamenti xodimi mayyor M.Muxtorovlar ishtirokida “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2023 yil 29 avgustdagi 9 dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlangan aksilkorrupsiya oyligi doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar rejasiga muvoq “Korrupsiya taraqqiyot zavoli” mavzusida “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etildi.

Hisobot davrida deklaratsiyalangan xodimlar tahlil qilinganda 10 nafar xaqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlandi va bartaraf etilishiga erishildi.

V. Korrupsiyaga qarshi qoidalarni jamiyat shartnomalariga kiritish

Jamiyat tomonidan 2024 yil davomida tuzilgan shartnomalar O‘zbekiston

Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy- huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni asosida amalga oshirilgan. Unga ko‘ra xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilishi hamda ko‘rsatilgan shartlar amaldagi qonunchilik asosida tuzilgan va shartlarni buzgan tomon qonun oldida javob berishi ko‘zda tutilgan.

VI. Kontragentlarni tekshirish

Jamiyat va uning tizim tashkilotlari tomonidan 2024 yilda reja asosida Jamiyatning boshqarma, korxonalar va tashkilotlari o‘rganilganda davlat xaridlarini amalga oshirish uchun jami 24 644 dona shartnomalar imzolanganligi aniqlandi. O‘rganish davomida tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan materiallarga ko‘ra:

1. Markaziy apparat tomonidan 61 marta tender o‘tkazilib ularda 159 nafar kontragenlar ishtirok etgan. O‘tkazilgan tenderlardan 70 nafar kontragentlarga salbiy va 49 nafariga ijobiy hulosalar berilgan. Bundan tashqari o‘tkazilishi rejalashtirilgan 20 nafar tenderda ishtirokchilar qatnashmaganligi yoki bir nafar ishtirokchidan ko‘proq yig‘ilmaganligi sababli bekor qilingan. Kontragentlarni tekshirish jarayonida 44% salbiy va 56% ijobiy hulosalar berilgan.

2. Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan taqdim qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra o‘tkazilgan kontragentlarni tekshirish jarayonida salbiy hulosalar bo‘lmagan.

VII. Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida ma‘lumotlarga asosan jamiyatning markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni 1600 dan ortiqni tashkil etadi. Shundan, 494 nafar nomzodga salbiy xulosa berilgan.

VIII. Ta‘lim va kommunikatsiya

Korrupsiyaga qarshi kurashish muntazam ravishda huquqiy ongni va madaniyatni yuksaltirishni talab etadi. Shu bois, Jamiyat xodimlari huquqiy savodxonligi va ongini rivojlantirish, halollik, poklik, ko‘nikmalarini singdirish orqali korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida bir qator ishlar malga oshirildi.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirganda 2024 yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Jamiyatning maxsus kurslarda o‘qitilgan xodimlari soni 80 dan ortiqni, umumiy o‘qitilganlar soni esa 2000 dan ortiqni tashkil etdi, jumladan:

T/r	Kesimlar ko‘rinishlari	O‘qitish turlari		Jami
		Bevosita umumiy	Maxsus	
1	Markaziy apparat bo‘yicha, hodimlar	120	18	138
2	Hududiy bo‘linmalar bo‘yicha, hodim jumladan			
2.1	Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari	223	2	225
2.2	Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari	835	3	1069
2.3	Qashqadaryo viloyati	213	2	215
2.4	Surxondaryo viloyati	65	2	67
2.5	Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari	341	3	344
2.6	Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston	154		154

	Respublikasi			
3	Boshqa tizim tashkilotlari, hodimlar			
3.1	“Temiryo‘lyonilg‘ita‘ min” boshqarmasi	13	3	16
3.2	Axborot-hisoblash markazi	5	1	6
3.3	Ishlarni boshqarish direksiyasi	7	1	8
3.4	Axborot-tahliliy media markazi	6	1	7
3.5	Harbiylashtirilgan qo‘riqlash boshqarmasi	50	1	51
3.6	“O‘ztemiryo‘lhisob” markazi	10	1	11
3.7	Vagon xo‘jaligi boshqarmasi	30	2	32
3.8	Boshqalar			
	Jami jamiyat bo‘yicha, hodimlar	2072	40	2112

Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish uchun reja-grafiklar, o‘quv dasturlari hamda mavzular tematikasi, test savollari ishlab chiqildi hamda mavzularga doir prezentatsiyalar tayyorlanib amalda tadbir etildi.

Yuqorida bay on etilganlarni umumlashtirganda 2024 yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha Jamiyatning maxsus o‘qitilgan xodimlari soni esa 36 nafarni tashkil etdi. Barcha maxsus o‘qitish turini tugallagan xodimlar sertifikatlariga ega bo‘ldilar va shu bilan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish rejasi to‘liq bajarildi.

2024 yilning may oyida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan tashkil etilgan “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining samaradorligini oshirish: “eanticor.uz” elektron platformasidan foydalanish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash masalalari” mavzusida onlayn seminar-treningda ishtirok etdilar. Seminarda 470 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Bundan tashqari, xorijiy ekspert sifatida "Ichki nazorat tuzilmalari samaradorligini oshirishda “e-anticor.uz” elektron platformasidan foydalanish va xavf-xatarlarni aniqlash, baholashda Sloveniya tajribasi” mavzusidagi taqdimoti bilan “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti eksperti Goran Klimentich o‘z taqdimoti bilan ishtirok etdi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida Zoom platformasi orqali jamiyat tarkibida barcha xodimlar bo‘limi mutaxassislari ishtirokida videokonferensiya yig‘ilishi o‘tkazilib, unda 2024 yil 5-iyunda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati haqida ma’lumotlar berildi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun uning mas’ul 2 nafar xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan ISO 9001:2015 hamda 37001:2016 sifat va xalqaro menejment tizimiga asoslangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha, “ISO 37301 Muvofiqlikni boshqarish tizimi – foydalanish bo‘yicha boshqaruv talablari” mavzusidagi trening kurslarini o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatdilar hamda «Cert Academy» xalqaro trening kompaniyasining maxsus sertifikatlariga ega bo‘ldilar.

Respublikamizda har yili o‘tkazilishi belgilangan “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni”ga bag‘ishlab Jamiyatning tizim tashkilotida o‘tkazilgan aksilkorrupsiya media haftaligi tadbiri yig‘ilishida ham 180 nafar ishchi-xodimlar qatnashdilar. Tadbirga tashrif buyurgan Transport prokurorining birinchi o‘rinbosari, Toshkent transport prokurori, Davlat xavfsizlik xizmati xodimi ishchi-xodimlar korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishlari uchun yanada chuqur zamin yaratuvchi nutq so‘zladilar.

IX. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Hisobot davrida korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi va unga oid boshqa qoidabuzarliklar to'g'risida aloqa kanallari (pochta) orqali 56 ta xabar kelib tushgan bo'lib, hududlar kesimida quyidagicha ko'rinishga ega:

1. Toshkent shahri - 12 ta;
2. Toshkent viloyati - 6 ta;
3. Qashqadaryo viloyati - 6 ta;
4. Surxondaryo viloyati - 5 ta;
5. Samarqand viloyati - 2 ta;
6. Jizzax viloyati - 4 ta;
7. Buxoro viloyati - 1 ta;
8. Xorazm viloyati - 2 ta;
9. Navoiy viloyati - 6 ta;
10. Qo'ng'iro't tumani - 1 ta;
11. Andijon viloyati - 2 ta;
12. Farg'ona viloyati - 9 ta;

X. Monitoring va nazorat

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ boshqaruv raisining 2024 yil 5 iyuldagi “Jamiyatda korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillariga rioya etilishi ustidan monitoring qilish reja-jadvalini tasdiqlash to'g'risida”gi 442-N sonli buyrug'i bilan korrupsiyaga qarshi talab va tartib-taomillariga rioya etilishi ustidan monitoring qilish reja-jadvali ishlab chiqildi hamda u asosda bir qator tashkilotlarda monitoring va nazorat ishlari amalga oshirildi.

Jamiyatning boshqarma, korxon va tashkilotlarida hisobot davrida jami yillik rejaga asosan 16 marotaba nazorat o'rganishlari o'tkazildi. Reja asosida o'tkazilgan o'rganishlar hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida quyidagicha ko'rinishga ega:

Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari - 21-28 oktabr;

Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari - 21-24 oktabr;

Surxondaryo viloyati - 15-16 oktabr;

Qashqadaryo viloyati – 17-18 oktabr;

Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari – 29 oktabr- 01 noyabr ;

Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi - 14-19 noyabr;

Monitoring ishlari xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlardan xabardorligi, ichki idoraviy hujjatlarning o'z faoliyatiga tatbiq etilganligi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga mas'ul xodim tayinlanganligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga topshiriladigan hisobot indikatorlarining to'g'ri to'ldirilayotganligi yuzasidan o'tkazildi.

XI. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Hisobot davrida jami 27 ta o'rganishlar o'tkazilgan bo'lib, 6 ta murojaat bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilgan, 1 ta murojaat anonim deb topilib ko'rmasdan qoldirilgan, 1 tasi murojaatchining shaxsiy arizasiga binoan ko'rmasdan qoldirilgan, 27 ta murojaat yuzasidan xizmat tekshiruv o'tkazilgan va xizmat tekshiruv xulosasi bo'yicha 15 nafar rahbar xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilinib, boshqa lavozimga o'tkazilgan, qolgan murojaat bo'yicha tegishli mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berilgan.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha ko'rilgan choralar quyidagilardan iborat:

1. O'z vaqtida xizmat safarlari tashkil etildi.
2. Har bir murojaat bo'yicha hujjatlar tegishli mutaxassislar tomonidan o'rganildi.
3. Murojaatchilar bilan tegishli mutaxassislar o'zaro bog'langan holda kerakli ma'lumotlar va tegishli hujjatlar o'rganib chiqildi.
4. Xizmat safarlari mobaynida tushuntirish ishlari olib borildi.

XII.Xulosalar

Korrupsiyaga qarshi kurashish uzluksiz jarayonga aylanmog'i lozim. Bunda ochiqlik va oshkoralik, jamoatchilik nazorati tamoyillariga amal qilgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli to'xtovsiz profilaktika chora-tadbirlari, muntazam o'zgarish va yangilanishlar kuchaytirilib jamoatchilik nazoratini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining tashkil etilganligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etilishida ijobiy samara bermoqda.

Shuningdek, jamiyat xodimlari o'rtasida korrupsiyani oldini olish ishlarini samarali yo'lga qo'yish, huquqiy ongini shakllantirish, qonun normalari talablariga rioya qilishni ta'minlash maqsadida yanada ko'proq o'qitish va tushuntirish ishlarini olib borish rejalashtirilgan.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlash unda faoliyat olib borayotgan har bir xodimning korrupsiya xavfini o'z vaqtida aniqlash, ularga olib boradigan oqibat, sabab va sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qo'shadigan hissasiga bog'liqdir.

XIII. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Inson omilini qisqartirish va jarayonlarni (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni mustahkamlash, halollik qadriyatlarini singdirish; korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan xizmat lavozimlaridagi xodimlarning bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borish;

- korrupsiya hatti-xarakatlari bilan bog'lik huquqbuzarliklarning oldini olish, sohaga doir qonun hujjatlariga to'liq amal qilinishi nazoratini kuchaytirish;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga rioya qilishlarini nazorat qilish;

- jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlari talablari buzilgandagi choralar targ'ibotini kuchaytirish;

- tizimidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, sifat va raqobatbardoshlik darajasini oshirish asosida korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish;

- ochiqlik tamoyillariga amal qilgan holda faoliyat olib borishni ta'minlash;

- jamiyat faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish.